

TA'LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

2024



**Kokand University
Andijon filiali**



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI

1

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVALAR VAZIRLIGI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

QO‘QON UNIVERSITETI ANDIJON FILIALI

**“TA’LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR,
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**международная научно-практическая конференция
«КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ: РЕФОРМЫ,
ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»**

**“QUALITY OF EDUCATION: REFORMS, PROBLEMS,
SOLUTIONS AND PROSPECTS”
international scientific and practical conference**

*Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami
(5-iyun 2024-yil)
1-qism*

УДК 337(063)
ББК 74я431
К30

Редакционная коллегия:

Захидов Г.Э. – доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент
Туйчиев Г.У. – кандидат медицинских наук, доцент
Кодиров В.А. – доктор педагогических наук, профессор
Абдуллаев У.С. – доктор исторических наук, профессор
Гафуров А.А. – доктор медицинских наук, профессор
Арзикулов А.Ш. – доктор медицинских наук, профессор
Умаров И.Ю. – доктор экономических наук (DcS), профессор
Акрамова Ф.А. – доктор психологических наук (DcS), профессор
Холбоев Ю.Х. – доктор химических наук, доцент
Иминов Т.Н. – доктор философии по экономическим наукам (PhD)
Курбанов Б.Е. – доктор философии по экономическим наукам (PhD)
Атаханов Р.С. – доктор философии по историческим наукам (PhD)
Раззаков Н.А. – доктор философии по химическим наукам (PhD), доцент
Курбанова Ш.А. – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Салохиддинова Х.Х. – доктор философии по психологическим наукам (PhD)
Холбутаев Г.О. – доктор философии (PhD) по филологическим наукам

К30 **Качество образования: реформы, проблемы, решения и перспективы=Ta'lim sifati: islohotlar, muammolar, yechimlar va istiqbollar=Quality of education: reforms, problems, solutions and prospects:** сборник материалов международной научно практической конференции (г. Андижан, 5 июня 2024 г.) / сост. Л.М.Алиев; Андижанский фил. Кокандского ун-та. — Казань: Бук, 2024. — 1000 с. — Текст: электронный.

ISBN 978-5-907839-90-8

DOI: 10.5281/zenodo.12749219

Авторские научно-практические работы раскрывают разносторонние направления исследования региональных ученых и практиков, которые вносят вклад в развитие и популяризацию науки. Содержание статей затрагивают современные тенденции, проблемы и перспективы развития региона и его отраслевой структуры, актуальные проблемы педагогической теории и практики, гуманитарные вопросы современности, опыт применения современных методов обучения и воспитания в образовании в эпоху патриотических и информационных тенденций. Издание адресовано научным сотрудникам, преподавателям, студентам, специалистам, а также широкому кругу читателей, интересующихся теорией и практикой региональной науки.

За содержание и аутентичность работ ответственность несут авторы. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов.

УДК 337(063)
ББК 74я431

© “Kokand University” Андижанский филиал, 2024
© Алиев Л.М., составление, 2024

UZBEK LANGUAGES Vokhidova T.S.	
“RO‘YO YOXUD G‘ULISTONGA SAFAR” ROMANI ANTIUTOPIYANING BIR KO‘RINISHI SIFATIDA Dilnoza X.J.	983
АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ЯЗЫКОВЕДЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ Хатамов У.И.	985
СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ГРАМАТИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ ГЛАГОЛА РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ Хайриддинова М. Х.	987
МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ РУССКОЯЗЫЧНОГО ОБЩЕНИЯ СПЕЦИАЛИСТОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА Хожибекова М. А.	990
ANALYSIS OF GESTURES USED TO DETECT LIES DURING COMMUNICATION Yaqubjonova R.M.	992
SELECTING READING MATERIALS Yaqubova M.M.	993
IQBOL MIRZO SHE‘RIYATIDA O‘XSHATISHLARNING IFODALANISHI Yoqubboyeva Sh.T.	996
EVRISTIK TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH Yuldasheva M.	999
РОЛЬ ПЕДАГОГОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ. Муллажанова М.А.	1003
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО АВТОРСКОГО МЕТОДА НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО (ИНОСТРАННОГО) ЯЗЫКА В ВУЗЕ. Муллажанова М.А.	1005
CHET TILLARINI O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV: INNOVATSIYALAR, METODLAR, TEXNOLOGIYALAR. Raxmonov N.R., Ermatova F.Sh.	1008
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ XALQLARI IJODIDA SATIRA VA YUMORNI YUZAGA KELISHI, SHAKLLANISHI VA RIVOJ TOPISHI Abdurahmonov I.A.	1012
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ XALQLARI FOLKLORIDA SATIRA VA YUMOR. Abdurahmonov I.A.	1016
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI No‘monova Z.	1019
NUMBERS AND SIMILARITIES IN THEIR USE IN ENGLISH AND UZBEK FOLKLORE Rakhimova Dildora Kobiljonovna	1023
ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИКИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЕ РКИ Абдухакимов Билолиддин Анваржонович	1025

Xulosa qilib aytganda, o'xshatish juda keng miqyosli hodisa bo'lib, sintaktik- stilistik chegaralarni bilmaydi. Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llangan o'xshatishlar tanlanishiga ko'ra matn mazmuniga to'la mos keladi, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini o'zida namoyon etgan. Shoir ijodida qo'llangan o'xshatishlar badiiy pardozi bo'libgina qolmay, shoirning ijodiy tafakkuri, til birliklaridan foydalanish mahorati to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shuning uchun ham ularda tasviriylilik va uslubiy bo'yoq, ekspressivlik kuchli darajada ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э. Антропонимлар-антропоцентрик тадқиқот объекти. //ЎТА,2013,№ 3.Б. 35-39.
2. Келдиёрова Г. Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. Айюб Фуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами.-Тошкент,2012.-Б.189
3. Маҳмудов Н.Тилимизнинг тилла сандиғи. Т.Ғафур Фулом нашриёти, 2012. - Б.88
4. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. - Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. -Б.161
5. Мукаррамов. М. Ўзбек тилида ўхшатиш. -Тошкент: “Фан”, 1976, -Б. 6
7. Усманов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф.Тошкент, 2020, Б.16
8. Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. - Новосибирск: Наука, 1976.-270 с.
9. Шомақсудов.А ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983, -Б.240.
10. Ғойибова З. Ўхшатишлар-образли миллий тафаккур маҳсули. / проф.Х.Неъматовнинг 75 йиллигига бағишланган илмий-назарий конф.матер. Тошкент,2017, 321-322-бб.
11. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent. 2007.
12. Курбонов, Д. К. (2023). Сопоставительное изучение современной русской и узбекской поэзии с применением приемов технологии развития критического мышления. ББК 81.2 Рус+ 83.3 (2Рос= Рус) Р89, 274.

EVRISTIK TOPSHIRIQLAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Maxmuda Yuldasheva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktranti

mahmudauldaseva@gmail.com

+998 90 1379986

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'rganishda evristik topshiriqlar va ulardan samarali foydalanish, o'qitishning evristik usullari, evristik yondashuvlar hamda o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, evristik yondashuv, zamonaviy pedagogika, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, o'yinlar.

Аннотация: В статье анализируются эвристические задачи и их эффективное использование при изучении прозаических произведений на уроках литературы, эвристические методы обучения, эвристические подходы, а также процессы обучения учащихся творчеству, мышлению и самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: творчество, творческая деятельность, эвристический метод, эвристический подход, современная педагогика, творческая деятельность, эвристическое обучение, творческая задача, игры.

Abstract: *This article analyzes heuristic tasks and their effective use in studying prose works in literature classes, heuristic teaching methods, heuristic approaches, and the processes of teaching students creativity, thinking, and independent thinking.*

Key words: *creativity, creative activity, heuristic method, heuristic approach, modern pedagogy, creative activity, heuristic education, creative task, games.*

Adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitishda evristik topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu topshiriqlarni darsning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo'llash mumkin. Masalan, yangi asarni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan vazifalarni, mustaqil o'qish uchun berilgan badiiy asarlarni mustahkamlashda qo'llash mumkin. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirganliklari, amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus tanlangan savollar tizimi va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy hamda tarbiyaviy masalalarni hal qilishga olib keladi. Olib boriladigan jarayonlar qiziqarli bo'lishi uchun o'quvchilarga evristik topshiriqlarni televizor yoki kompyuter monitori orqali asar qahramonlarining aynan o'zlari berib borishlari mumkin.

Jahon adabiyoti asarlari bilan tanishayotgan o'quvchilarda ikki xil holat yuz beradi:

1. O'zi uchun tanish narsalarni ko'rish niyatida bo'ladi. "Shu tanish narsa bilan uchrashuv yuz berganda, qanoatlanish, estetik zavq hissi boshlanadi". Masalan, mintalitetimizga xos udum, urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, rishtalar.

2. Kutilmagan, notanish timsollarga duch keladi. A.N.Tolstoy shunday yozgan edi: "Har bir xalq san'atda umumiy idealni ifodalash uchun rang-barang usullarni qo'llaydi va ayni shu tufayli biz idealimizning yangi kutilmagan timsol orqali ifodalanganini ko'rib alohida zavq olamiz"[1, 31]. Bu holat ham o'quvchida alohida hissiy zavqlanish uyg'otadi.

Italiyalik mutaxassis J.Rodari: "Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish – fikrning dushmani", – degan qarashlarni ilgari surgan edi. Ko'rinadiki, o'quvchiga asarni faqatgina o'qitish, qayta so'zlatish bilan singdirish juda murakkabdir. Har bir o'rganilayotgan badiiy asarni turli xil metod va topshiriqlar, didaktik o'yinlar bilan qiziqarli qilib tahlilga tortish kerak.

O'quvchilarning tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish masalasi bo'yicha o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi sohasida S.Dolimov, Q.Ahmedov, A.Tojiyev, O.Madayev, A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, K.Abdullayev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Biz o'zimizning ko'p yillik ish faoliyatimizda o'quvchilarda ijodga moyillikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelmoqdamiz. Ularda ijodga moyillikni tarbiyalash, rivojlantirish borasida turli amaliy mashqlarni qo'llamoqdamiz.

Respublikamizdagi ijod maktablari o'quv dasturiga kiritilgan nasriy asarlar bilan tanishtirishda nafaqat matnni o'qib tushunish, so'zlash, o'qish yoki yozish, balki uning g'oyasi, muallifning badiiy niyati, obrazlar tizimi, obraz va obrazlilikka munosabat bildirish orqali hissiy zavqlanish, ma'naviy sifatlarini o'stirishga daxldor tahlil kompetensiyalari ham nazarda tutiladi. Bu borada metodist olim Q.Yo'ldoshevning quyidagi so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi: "O'quvchi va talabalarni shunchaki muammo yuzasidan bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun intellektual kuchi tekshirilayotgan badiiy matnning mag'zini chaqishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim"[2, 114].

Ijod maktablarining 7–11-sinf o'quvchilarini ijodkorlikka yo'naltirish ishlari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. O'quvchilarda ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish bir qator ish usullarini tizimlashtirishni talab etadi. Bular: muammoli ta'lim, tadqiqot metodi, loyiha metodi, ijodiy topshiriqlar, tadqiqot topshiriqlari va adabiy-nazariy tushunchalarni amalda qo'llay olish bilan bog'liq muammolarni hal qilish kabilardan iborat. Qayd etilganlar adabiy materiallar ustida ishlash barobarida global tarmoq imkoniyatlari: ma'lumotlarni izlash, ijtimoiy tarmoqlar va bloglardagi forum va seminarlarda muloqot qilishni ham ko'zda tutadi.

"Lirik va dramatik asarlardan farqli, – deb yozadi professor M.Mirqosimova – epik turga taalluqli asarlarga qamrab olingan hayotiy hodisalar makoni kengroq, ularda voqealar va

qahramonlarning nasriy yo'sindagi tasviri yoki talqini yetakchilik qiladi; ziddiyatlar, holatlar tasviri janr miqyosiga mos salmoqdor ma'nolarni ifoda etadi; qahramonlar qiyofasidan anglashiladigan mazmun esa ularning xatti-harakatlari bilan kurashlariga tuyg'ulari va maslaklariga bog'lanib, yaxlit holda asar g'oyasini yuzaga keltirishi haqida o'quvchilar to'la tasavvurga ega bo'lishlari shart"[3, 147].

Shu o'rinda biz dars jarayonida nasriy asarlarni o'rgatishda va o'zlashtirishda foydalanish mumkin bo'lgan bir qancha evristik usullarni ko'rib chiqsak. Ijod maktablarining "Adabiyot" darsliklariga epik turga mansub quyidagi asarlar kiritilgan:

7-sinfda Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Jinlar bazmi" hikoyasi, O'lmas Umarbekovning "Sovg'a", "Charos" hikoyalari;

8-sinfda Ekzyuperining "Kichkina shahzoda", Ch.Aytmatovning "Oq kema", A.Grinning "Alvon yelkanlar", X.Sultonovning "Saodat sohili" qissalari, A.Dodening "So'nggi saboq", X.Do'stmuhammadning "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyalari, M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi, O.Henrining "So'nggi yaproq" hikoyasi, D.Defoning "Robinzon Kruzoning sarguzashtlari", Herbert Uellsning "Ko'rinmas odam" romanlari, Sh.Xolmirzayevning "O'zbeklar", "Ot egasi", R.Thakurning "Shubxa", I.Sultonning "Qismat", "Shamolli kecha" hikoyalari, S.Ayniyning "Sudxo'ring o'limi" qissasi;

9-sinfda Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasi, A.Muxtorning "Chinor" romani, Richard Baxning "Oqchorloq Jonatan Livingston" rivoyat-qissasi, O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", S.Ahmadning "Hijron kunlarida", O.Hoshimov "Ikki eshik orasi" romanlari, V.Rasputinning "Fransuz tili saboqlari" hikoyasi, A.A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi, T.Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasi, Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" romani, N.Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi, Sh.Boshbekovning "Temir xotin" komediyasi, T.Malikning "Alvido, bolalik", L.Bo'rixonning "Hali quyosh botmagan" qissasi, U.Shekspirning "Hamlet" tragediyasi, M.M.Do'stning "Dasht-u dalalarda", Ya. Kavabata "Anor" hikoyalari;

10-sinfda Migel de Servantesning "Don Kixot" romani, Frans Kafkaning "Evrilish", Somerset Moemning "Ijodiy parvoz" hikoyalari, E.M.Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani;

11-sinfda A.Qodiriy "O'tgan kunlar", Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanlari, M.Bulgakovning "Iturak" qissasi, Oybekning "Qutlug' qon" romani, A.Moruaning "Qaytish" hikoyasi, R.Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja", N.Eshonqulning "Go'r o'g'li" romanlari, G.G.Markesning "Ziyorat", N.Mahfuzning "O'zgalar uchun yasha", X.Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyalari, Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", P.Koelyoning "Alkimyogar", U.Hamdanning "Muvozanat" romanlari, E.A'zamning "Jannat o'zi qaydadir yoxud Jiydalidan chiqqan Jo'raqul" dramatik qissasi hamda Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil" hikoyasi. Mazkur asarlar har xil sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va intellektual imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilgan. Ushbu asar ro'yxatlaridan ko'rinadiki, maktab adabiy ta'limida epik turga mansub deyarli barcha janrlarga murojaat qilingan. O'rganish uchun darslikka kiritilgan epik turga mansub bu asarlarning barchasi voqealarning izchil bayoniga hamda tasvirda tafsilotlarning ustuvorligiga va bir qator obrazlar tizimiga ega. Epik asarlarni tahlil qilish, ularni o'quvchilar ongiga singdirish borasida metodist olimlarning fikrlarini ko'rib chiqsak: A.Zunnunovning fikricha: "O'qituvchi maktabda o'quvchilarni asarni o'rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g'oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko'nikmalarini o'stirishga, egallagan bilimlarini aql-zakovat, his-hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim"[4, 97].

Professor Qozoqboy Yo'ldoshev epik asarlarning badiiy tahlili borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ko'pincha epik asarlar tahlil qilinayotganda undagi qahramonlardan g'oya qidirishga tinishadi va shu bois turli asarlardagi mutlaqo boshqa-boshqa personajlar ikki tomchi suvday bir xil talqin etilib, birday baholanadi. Chunki g'oyalar o'xshash bo'ladi, mutlaqo bir xil g'oyalar ham ko'p, lekin cheksiz olamda bir-biriga to'liq o'xshash bo'lgan ikki kishi yo'q. Badiiy asar va undagi

qahramonlar tasviri esa, ayni shu o'xshamaslikning, o'ziga xoslikning badiiy ifodasi sifatida yaratilishi lozim"[5, 97].

Rus metodisti M.Ribnikova: "Metodik usullarni asar tabiati taqazo qiladi... Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida, yetakchi boblarni ajratib olinadi..."[6, 58].

Professor Boqijon To'xliyev esa: "O'rganish uchun taqdim etilgan epik asarlar tahlilga tortilganda adabiyot o'qituvchisi matn hajmidan kelib chiqqan holda uning bir qismini uyda o'qib kelishni topshirishiga to'g'ri keladi. Asardagi personajlarning qat'iy va haqqoniy tasviriga jiddiy e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Tahlil shunday yo'lga qo'yilgandagina timsolning o'ziga xosligi, adibning san'atkorligi namoyon bo'ladi. Har ikkisinin shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy kamolotiga o'ziga xos ta'siri bo'ladi" [7, 74].

Professor S.Matchonning ta'kidlashicha, "Ayrim o'qituvchilar epik asarlar tahlilini jo'nlashtirib, yozuvchini o'quvchi bilan yonma-yon qo'yib qo'yadilar. Holbuki, o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga "Qahramonning bu ishi to'g'rimi?", "Uning o'mida bo'lganda nima qilar edingiz?" kabi ijodiy, keng fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga: "Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkinmidi? Siz buni qanday tasavvur qilasiz?"... singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug'iladi" [8, 22–23]. Professorlar Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovalar hammuallifligidagi o'quv qo'llanmada quyidagi fikrlar ilgari suriladi: "Epik asar tahlilida obrazlar tasviri, voqealar rivoji, tili, unda ko'tarilgan yetakchi g'oyalarga e'tibor qaratiladi. Matn mazmunidan badiiy hayotiy xulosalar chiqariladi" [9, 232].

Metodist olim M.Mirqosimova adabiyot darslarida asar ustida ishlash haqida to'xtalib, o'quvchilarga badiiy asar tilini o'rgatish quyidagi tartibda taqdim etilishi mumkinligini tavsiya qiladi:

1. Asardagi muallif nutqini o'rganish.

2. Asar qahramonlari nutqini (diologlar, kolliziya, ya'ni ruhiy holatlar tasviri, monologlar) o'rganish.

3. Yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlarini o'rganish"[10, 89].

Metodist olim A.Aliyev maktabda asar matni ustida ishlashda o'qituvchi quyidagi talablarga rioya qilishi zarurligini ta'kidlaydi: "O'qituvchining o'zi badiiy asarni o'qigan, o'zlashtirgan, ikkinchidan, tanlangan asar o'quvchilarning yoshi, qobiliyati va bilim darajasiga mos bo'lishi kerak"[11, 88]. Bizningcha, o'quvchilardagi ijodiy salohiyatni mustahkamlash yoki ijod qilishga undash uchun qiziqarli ijodiy mashqlar, adabiy kashfiyotchilik kompetensiyalarini shakllantiruvchi topshiriqlar berish hamda ushbu topshiriqlar orqali so'zning latofatini yanada yaqindan his qilishga, ulardagi yangi qirralarni kashf etishga erishish mumkin.

Quyida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi ayrim usullarni keltirib o'tamiz.

"Tezkor savodxon" topshirig'i. Bu topshiriqda o'quvchilarga tanish bo'lgan asar nomlari yozilgan kartochkalar taqdim etiladi. Ular bir vaqtning o'zida asar nomini ovoz chiqarib o'qishi hamda o'sha asar muallifini aytishi lozim. Asar nomini o'qib, muallifini birinchi bo'lib topgan o'quvchi kartochkani oladi. Topshiriq so'ngida kartochkalari ko'p o'quvchi g'olib sanaladi. Bu topshiriqni boshqacha usulda bersa ham bo'ladi. O'quvchiga darsda o'tilgan adib yoki shoirning asarlari nomi ko'rsatiladi. Ular esa bu asarlarni janriga ko'ra ajratadi. Mazkur topshiriqlar orqali o'quvchining tezligi oshadi, ziyrak va topqir bo'ladi. Shuningdek, fikrlash qobiliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni bola tez fikr yuritadigan bo'ladi.

"Tugallanmagan fikrlar..." usuli. Bu usul o'tilgan asarlarni takrorlash va mustahkamlash darslarida yaxshi samara beradi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga asar mazmuni va g'oyasini ochib berishga qaratilgan quyidagi tugallanmagan fikrlar yozilgan blankalar tarqatiladi. Bu usulni ijod maktablari uchun tuzilgan 9-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi misolida ko'rib chiqsak.

1. Dunyodagi barcha mavjudotning soyasi bor. Agar mening soyam bo'lmasa-chi,

2. Agar men Barotning o'mida bo'lsam, soya haqida....

3. Soyasi yo'q odam nuqsonli odam bo'ladimi...
4. Odamning soyasi bo'ldi nima, bo'lmadi nima...
5. Bu asarning menga yoqqan jihati...
6. Menimcha, asar g'oyasi shu haqda... va h.k.

Ma'lumki, dars mashg'ulotlarida tarqatma materiallardan samarali foydalanish juda muhim ahamiyatga ega. Ularni tayyorlash pedagogdan sabr-toqat, kreativ yondashuv va mahorat talab etadi. Tarqatma materiallar sifatida berilgan topshiriqlar ta'lim oluvchilarning dars jarayonida individual, juftlikda yoki guruh bo'lib hamkorlikda ishlashiga, berilgan topshiriqlarni hamjihatlikda bajarishiga, vaqtdan unumli foydalanishiga imkon beradi. Shuningdek, tarqatma materiallar yordamida bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilish shubhasiz ta'lim oluvchilarning puxta bilim olishlariga va o'z navbatida ushbu egallangan bilim ular xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Методика преподавания литературы в средних специальных учебных заведениях. – Москва: Высшая школа, 1987. – С.31.
2. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2006. – 114-б.
3. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 147-б.
4. Zunnunov A. va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1992. – B.84.
5. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: "Kamalak", 2016. – B.97.
6. Рыбникова М.А. Очерки по методике литературного чтения. – Москва: Педагогика, 1985. – С.58.
7. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006. – B.74.
8. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996. –B. 22-23.
9. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, –B.232.
10. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped.fan.dok. ...diss. – Toshkent: 1995. –B.89.
11. Aliyev A. Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish: O'qituvchilar uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – B.88.
12. Курбонов, Д. К. (2023). Сопоставительное изучение современной русской и узбекской поэзии с применением приемов технологии развития критического мышления. ББК 81.2 Рус+ 83.3 (2Рос= Рус) P89, 274.

РОЛЬ ПЕДАГОГОВ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.

Муллажанова Мухаббатхон.

Преподаватель Андижанского государственного университета

Эл.почта: muhabbat68@list.ru тел. 998914971007

Аннотация: В статье рассматриваются такие понятия, как компетенция, компетентность и анализируются факторы развития профессиональной компетенции учителя в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: профессия, компетенция, компетентность, фактор, личность.

Annotatsiya: Maqolada kompetentsiya, kompetentlik kabi tushunchalar ko'rib chiqiladi va zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasb, kompetentsiya, malaka, omil, shaxs.

Annotation. The article discusses such concepts as competence, competency and analyzes factors in the development of a teacher's professional competence in the modern educational process.